

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Jabborova Munisa Abduvaxob qizi

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 78-maktab psixologi

Annotatsiya. Maqolada bugungi globallashuv davrida yosharning sog'lom va barkamol bo'lib kamol topishlarida psixologik xizmatning inson hayotida tutgan o'rni haqida bayon qilinadi. Shuningdek, aholining psixologlarga, psixologik markazlarga bo'lgan ishonchini oshirish, turli sohalarining rivojlanishida psixologik xizmatning nechog'lik muhimligi haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: psixolog, fikr, munosabat, umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya, dunyoqarash, amaliy psixologiya, psixologik xizmat, mutaxassis.

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham g'oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan". Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan inson bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etish uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratilishini o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz.

Pedagogikada "shaxs" tushunchasi "inson" tushunchasidan farqli o'laroq, insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatish natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy (olam) xususiyatlarini rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va hokazo), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatan, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilish, imonli bo'lishi, insonni shaxs darajasiga ko'taradi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda uzluksiz ta'lim tizimi oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobiy hal etiladi. Bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning taqdiri haqida qayg'urish, uning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonish, shuningdek, bolaning xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtai nazarga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'lim insoniyat jamiyati rivojining dastlabki paytlaridayoq katta rol oynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan.

Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan.

Bugungi kunda pedagoglarning oldida tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim va nima belgilab beradi? degan haqli savol turadi. Tarbiya bilan shug'ullanuvchi har bir pedagog o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadini aniq tasavvur etishi va bu maqsadni muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish zarur, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak degan savollarni tasavvur etish lozim. Bu maqsad jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak.

Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, shunday degan edi: "Janobi Haq insonlarning asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomoni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuk xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuk ishlarni qiladigan nodon, johil, rasvoi odam bo'lib chiqadi"

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, psixologik xarakteri, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Bu borada oilaviy tarbiyaning o'zni beqiyos.

Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, ahloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi. Biroq bunda jamiyatimiz taraqqiyoti munosabati bilan oila uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchrayotganliklarini hamesdan chiqarmaslik kerak.

Maktab o'z tarbiyalanuvchilari orasida madaniy qadriyat va dunyoqarashning tarqalib ketishini tezlashtiradi; olingan bilimlar esa ayrim bitiruvchilarning

imkoniyatlarini chegaralasa, ayrimlarining o'sishiga yordam beradi. Bolalar o'zlarini ko'p vaqtlarini maktabda o'tkazadilar. Illichning ta'kidlashicha, ular darsda o'rgatilgandan ko'proq narsani maktabdagi muhitdan o'rganadilar. Bolalar birinchi marta mehnat dunyosi nima ekanligini bilib oladilar. Ular kattalar qo'ygan vazifalarni bajarishga kirishib o'ta intizomlilik, tirishqoqlikni o'zlashtiradilar

Millatlarning tarixiy, milliy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zbek oilalari taraqqiyotini umumiy va xususiy taraqqiyotlar asosida oilaviy tarbiyani maqsadga muvofiq yaxshilash lozim. Bu davlatimizning oilada yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish jarayoniga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalardan biridir. Keksalar ko'pincha "Bug'doy eksang bo'g'doy olasan, arpa eksang – arpa olasan" deyishadi

Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo'lishi bu qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg'ular, qanday orzular bilan to'ldirayotganimizga bog'liq. Hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan, sinovlariga bardosh bergan keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan qaraydigan kishi bo'lmasa kerak. Ular o'zlari bilganni sidqidildan farzandlarga o'rgatadilar, ayni paytda donishmandlik bilan yoshlarni yomon xatolardan asrashga harakat qiladilar. Ular insoniyat abadiy zanjirida o'tmishda erishilgan boy ma'naviy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazuvchi bebaho xalqdir.

XULOSA

Bugungi psixologik xizmatning qulay va yosh avlodning kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma'qul va manzur bo'lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ'ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi. 1990-yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari hukmron bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o'ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi. Chunki maktabdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib, O'zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmas ekan. Shunga muvofiq dastavval Toshkentda, so'ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon, Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta'lim maktablari uchun "Amaliyotchi-psixologlar" mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi, targ'ibotchisi va tadqiqotchisi samarali ish olib bormoqdalar.

Psixologik xizmat qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, insonlarda uchraydigan turli ruhiy holatlar ham shunchalik oson korreksiya qilinadi. Insonlar o'z hayotida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishni o'rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. – T.: O'zbekiston, 2017- B
2. Karimov I. "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish". Ma`rifat. №5. 05.02.2010.
3. Sotsiologiya. Anthoni Giddens T-2002
4. Абдуллаева, Г. А., & Раджаббоева, Р. А. (2020). "OILA, MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGI" O'QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASH
5. SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 7).
6. SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 7).
7. Abdulla Avloniy, "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent, O'qituvchi. 1992